

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TARBIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA HAMKORLIK AHAMIYATI

Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi

qudratovashahnoza768@gmail.com

TAFU “Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi”

kafedراسi o‘qituvchisi

Batirbekova Umida Shavkatjon qizi

umida.asadova@mail.ru

TAFU talaba

Annotatsiya: *Hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lmish tarbiyaning inson hayotida nechog‘lik muhim ahamiyat ega ekanligini va farzandlarimiz yetuk barkamol inson bo‘lishlari uchun hozirgi kunda prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyev tomonidan qilinayotgan chora tadbirlar va ularning nechog‘lik oqilona ekanligi haqida so‘z yuritimiz.*

Kalit so‘zlar: *Tarbiya, ta‘lim tizimi, yoshlar, kelajak avlod, oila, mahalla, pedagoglar, xamkorlik, boshlang‘ich ta‘lim, farzand, birdamlik.*

Annotation: *One of the most urgent issues of today, how important is education in human life, and how reasonable are the measures being taken by our president Shavkat Miramonovich Mirziyoyev for our children to become full-fledged human beings? we walk.*

Key words: *Education, education system, youth, future generation, family, neighborhood, pedagogues, cooperation, primary education, child, solidarity.*

Аннотация: *Один из самых актуальных вопросов современности, насколько важно образование в жизни человека и насколько разумны меры, принимаемые нашим президентом Шавкатом Мирамоновичем Мирзиёевым для того, чтобы наши дети стали полноценными людьми, мы идем.*

Ключевые слова: *Образование, система образования, молодежь, будущее поколение, семья, соседство, педагоги, сотрудничество, начальное образование, ребенок, солидарность.*

Davlatimiz rahbari Shavkat Miramonovich Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek “Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta‘lim va tarbiya bo‘ladi”, ha bu gaplar shunchaki gapirilgani yo‘q albatta. Inson dunyoga kelishiyu bu hayotda shaxs sifatida o‘z o‘rnini topishida tarbiyaning ro‘li juda muhim sanaladi. Ayniqsa hozirgi 21 asrda bunga kotta e‘tibor qaratilmoqda, chunki 21 asr o‘z nomi bilan texnika asri bo‘lib, internet jadallik bilan rivojlanayotgan bu davrda yosh avlodning tarbiyasida sustlashishlar ko‘zga ko‘rinarli darajada bo‘lib qoldi. Mamlakatimizda ham tarbiya tizimini takomillashtirish uchun bir qancha chora tadbirlar amalga oshirildi, ulardan biri va eng muhimi yurtboshimiz tomonidan talim tizimiga tarbiya fanining alohida fan sifatida kiritilishi bo‘ldi desak xech adashmagan bo‘lamiz. Tarbiya fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalaridan 2020 – 2021 o‘quv yilidan boshlab joriy qilindi. Bugungu kunda barkamol

inson tarbiyasi pedagogik jihatdan dolzarb masala bo‘lib tarbiya jarayonining asosi o‘qitish bo‘lib, bunda pedagoglar zimmasiga juda katta masuliyat yuklatilmoqda. To‘g‘ri ma‘lum jihatdan pedagoglarning bunda ro‘li juda muhim, lekin inson xayotga kelibdiki uning tarbiyasi oiladan, oilaviy muhitdan boshlanadi degan gap bejiz emas. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya fani qo‘yildi degani bu farzandlarimiz tarbiyasi bo‘lib qoldi degani emas. Qars ikki qo‘ldan chiqqanidek farzand kelajak avlod tarbiyasida ota – onalar va mahalla bilan hamjihatlikda harakat qilmoq kerak. . . .

Zero farzand tarbiyasi barchamiz uchun birdek muhim hisoblanadi. Tasavvur qiling sizning mahallangizdan, sizning maktabingizdan yoki sizning oila a‘zolaringizdan shunday tarbiyasi yetuk, maqtovg‘a sazovor farzand chiqsayu, buning uchun barcha uni tanigan bilganlar sizga minnatdorchilik bildirsa, shunday tarbiya uchun sizga rahmat aytsa bu baxt to‘g‘rimi? bunday maqtovlar eshitganingizdan keyin o‘zingizda faxr tuyg‘usini sezasiz albatta. Shunday ekan nima uchun bu masalani faqatgina pedagoglar zimmasiga yuklashimiz kerak. Aksincha birdamlik bilan xarakat qilmog‘imiz, kelajak avlod tarbiyasi bo‘lishi, vatanimiz faxrlana oladigan, qayerga, qay yurtga bilimi, tarbiyasi bilan bu o‘zbek o‘g‘loni yoki o‘zbekim malikasi deya faxr bilan ayta oladigan farzandlarni ulg‘aytirmog‘imiz lozim. Shu joyida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi jummalarga e‘tiboringizni qaratsam:

Birisi shoshilmoq, biri-ko‘zi och,
Biri jaholatdir, yaqinlashma, qoch.
To‘rtinchi – yovuzlik, buzuq fe‘llilik,
Oxirgisi – yolg‘on, qo‘pol tillilik.
Bulardan tubani yomon fe‘l erur,
Yomon fe‘l kishiga alamlar berur.
Ochiq yuz, shirin so‘z, mayinlik kerak
Fe‘l-atvorda moslik, tayinlik kerak.

Naqadar chiroyli jumlar. Ha inson tarbiyasi, xulqi, fe‘l atvori uning yuzi hisoblanadi. Go‘zallik dunyoni qutqaradi deganlaridek inson tarbiyasi ana shu go‘zallikni dunyoga keltiradi. Tarbiyasi chiroyli inson jamiyatda o‘z o‘rnini onson topa oladi va bimalol barchaning oldida xurmat qozona oladi. Tarbiya fanining kelib chiqishi aslida 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasiga borib taqaladi. Manashu harakatlar streategyasida ijtimoiy yo‘nalish sifatida ta‘lim tizimini ham takomillashtirish bo‘yicha bir qancha chora tadbirlab belgilab berilgan. Ushbu chora tadbirlar asosida undan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi qabul qilingan. Bularning barchasi bejiz emas. Konsepsiyaning bosh maqsadi bolani ona qornidaligidan boshlab, to 30 –35 yoshga yetgunga qadar bo‘lgan davrda ma‘naviy, axloqiy tarbiyani uzluksiz berib borish, yani bosqichma bosqich to‘xtovsiz berib borish kelajak avlodni yetuk shaxs sifatida kamol topishiga ko‘mak berishdan iborat. Tarbiya fani manashu konsepsiyaning, uzluksiz ma‘naviy ta‘lim yo‘lga qo‘yishda negizi, poydevori sifatida yo‘lga qo‘yildi. Tarbiya fanining muqovasidagi jummalarga bir e‘tibor beraylik-a “tarbiya baxt va muvaffaqiyat siri” jumlar chiroyli va o‘rinli yozilgan. Bu jumlar tarbiya fanining epigrofi sifatida keltirilgan. Muqovadagi tarbiya bering, rag‘batlantiring, o‘zgartiring deyilgan jumlarning naqadar aniq

va nozikligiga e'tibor bering. Baxt va muvaffaqiyat inson uchun xayoti davomida kerakli bo'lgan, xayotini yorqin va maqsadli bo'lishida kotta ro'l o'ynaydi, bular uchun esa tarbiya zarur hisoblanadi. Farzandlarimizga, kelajagimiz egalariga tarbiya berishlik va bu tarbiya berish yo'lida barchamiz birlashishimiz zarur. Ularni qachalik to'g'ri tarbiya qilsak uning baxtli va muvaffaqiyatli bo'lishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Tarbiya jarayonida rag'batlantirish ham muhim hisoblanib, me'yor chegaralaridan oshmagan holda ta'lim jarayonida qo'llashimiz kerak bo'ladi. Ta'lim jarayonida berilayotgan tarbiya va o'rinli rag'batlantirishlar ketma ketligi uzluksiz amalga oshirilsa farzandimizda xulqi, ma'naviyatida va albatta amalga oshirayotgan ishlarida sezilarli darajada o'zgarisglar ro'y beradi. Bu esa o'z navbatida qadamma qadam avvalo oilasining so'ngra mahallasining va nihoyat esa vatanimiz kelajagiga ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya berishda muomala madaniyati muhim hisoblanadi. Hayot olamida shubhasiz insoniyatga tarbiya singari tasirli narsa yo'q. Shu sababdan qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to'g'risida qimmatli fikrlarini yozib qoldirganlar. Xitoy donishmandi Syun-Szi "Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig'lashadi. Katta bo'lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati", deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuel Kant o'z asarida "Inson faqat tarbiya orqali inson bo'ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir", degan fikrni bildiradi. arbiya borasida Sa'diy Sheroziy shunday misralarni bitgan:

Minbarning poyida tursa ham eshak,
Tarbiya yuqmaydi, bo'lmaydi odam.
Tarbiya ko'rmayin ulg'aysa kishi.
Eshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham.

Tarbiyaga e'tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o'z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, "Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalardir", deb yozib qoldiradi.

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar", deydi. Alixonto'ra Sog'unliy tarbiya xususida shunday yozadi: "Yolg'iz insonga emas, barcha jonlik mavjudotlarda ta'lim-tarbiya ta'siri ko'z oldimizda ko'rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O'qitish-o'rgatish buyon tursin, suhbat o'zi ham, suhbatdoshlarga o't bilan suvdek tez o'tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo'ldoshlariga qarab baho beriladi". Darhaqiqat, nafaqat bir oila, balki er sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog'ati ham shak-shubhasiz ta'lim va tarbiya tufaylidir. Ma'lumki, ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino merosida ilm va axloq uyg'unligi masalasi alohida o'rin tutadi. Allomaning "Tadbiri manzil" risolasida tarbiya masalasi ko'proq tahlil etilgan. Xususan, "Tadbiri manzil"da inson tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmasligi qayd etiladi. Bunday xususiyatlar odamning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o'zgalari tajribasi, avvalgi ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya o'zgalarning ta'siri ostida shakllanadi. Shaxs kamolotida ijobiy fazilat va

odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo'lsa, ma'naviy qiyofaga yopishib olgan salbiy jihat va odatlardan xalos bo'lish shunchalik murakkabdir. Alloma nazdida bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma'qul: "Bola tana bo'g'inlari barqaror bo'lgan, uning tili to'g'ri, ravon gapirish va quloqlari tinglash va o'zgaralar so'zlarini qabul qilish hamda o'rganilayotgan narsaga (tabiiy) moyillik paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob (asoslari)ga o'rgatib borish lozim". Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, hamma vaqt tarbiyada butun ish nafaqat ota-onalarga, balki go'zal axloq va ilmiy salohiyatga ega bo'lgan ustoz-muallimlarning sa'y-harakatiga ham bevosita bog'liq. Bunda ishni tashkil qilish shakllarinigina emas, ayni paytda, ishlashni to'g'ri yo'lga qo'yish shartlarini bilish ham muhimdir. Shunday ekan farzandlarimiz kelajagimiz tarbiyasiga be etibor bo'lmaylik azizlar zero bir bolaga 7 mahalla ota ona degan gaplar bejiz aytilmagan bu uning ishi bu buning ish menga nima deya atrofimizdagi bo'layotgan axloqsiz ishlarga shunchaki koi'z yummaylik birdam bo'laylik hamjihatlikda harakat qilaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston", 2017. 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. — T.: "O'zbekiston", 2017. 592 b.
3. Qudratova Sh.B. "O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: muammo va yechimlar" 2-to'plam masofaviy ilmiy-amaliy onlayn konferensiya 2021.
4. Sh. Qudratova Oliy talim muassasalarida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda xalqaro tajribalardan foydalanish tizimi. // "Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lim: kecha, bugun va ertaga" mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumani 155-162 betlar
5. Semenova R. I. STEAM-axborot texnologiyalarida ta'lim va bandlik Rossiya mintaqalarida iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga moslashish omillari sifatida / R. I. Semenova, S. P. Zemtsov, P. N. Polyakova // innovatsiya. – 2019. – №10. 58-sahifa.
6. Jobs Stiv: texnologiya va san'at chorrahasida. – URL: <https://www.ixbt.com/td/steve-jobs-technologies-liberal-arts.shtml> (kirish sanasi: 01.08.2022).
7. <https://scholar.google.com/citations?user=vok0-AAAAAJ&hl=en>